



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI STATISTIKA BOSHQARMASI



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

*2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)*


*Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi
Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi*

So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta‘minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilyapdi.

Jumladan, 2023-yil 1-aprel holatiga respublikada faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) 23,1 mingtani ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar 19,4 mingtani tashkil etdi.



*Korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida umumiy ma‘lumotlar
fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, 1-aprel holatiga ko‘ra, birlikda.*



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar


2023- yil yanvar-mart holatiga ko‘ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning
o‘tgan yilga nisbati (foizda)

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida


jamiga nisbatan ulushi



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi




Savdo





Axborot va aloqa




Sanoat



Tashish va saqlash

Sog‘liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

2023- yil yanvar- mart oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar 1 873 soni 2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda 790 taga ko‘payganligini ko‘rish mumkin.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar sonining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha 2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda, mas’uliyati cheklangan jamiyatlar 755 taga, oilaviy korxonalar 90 taga ko‘paygan.


Tumanlar kesimida

o‘tgan yilga nisbati (foizda)


Nukus sh.	349	141,9 %	Shomanay	70	233,3 %
Beruniy	215	212,9 %	Qonliko‘l	66	300,0 %
To‘rtko‘l	200	186,9 %	Qorao‘zak	60	260,9 %
Qo‘ng‘irot	189	262,5 %	Mo‘ynoq	52	144,4 %
Ellikqal‘a	150	174,4 %	Nukus	48	102,1 %
Amudaryo	133	141,5 %	Taxiatosh	46	83,6 %
Chimboy	87	207,1 %	Taxtakopir	37	168,2 %
Xo‘jayli	73	197,3 %	Bo‘zotov	28	200,0 %
Kegayli	70	142,9 %			

2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda


Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo



Axborot va aloqa




Sanoat




Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish


jamiga nisbatan ulushi



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

2023- yil 1- aprel holatiga faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 2019- yilning mos davriga (16 736 ta) nisbatan 6 402 taga ko'payganligini quyidagi sohalarida korxonalar sonining sezilarli o'sishi bilan ifodalash mumkin: savdo – 3 661 tadan 6 566 taga (o'sish 2 905 ta), sanoat – 2 012 tadan 3 333 taga (o'sish 1 321 ta), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 1 976 tadan 3 018 taga (o'sish 1 042 ta).



Tumanlar kesimida

Nukus sh.	6 046	Kegayli	786
To'rtko'l	2 363	Taxiatosh	740
Amudaryo	1 935	Qorao'zak	663
Beruniy	1 928	Qonliko'l	616
Ellikqal'a	1 533	Mo'ynoq	600
Qo'ng'iro't	1 467	Shomanay	596
Xo'jayli	1 217	Taxtakopir	444
Chimboy	986	Bo'zotov	380
Nukus	838		

2023- yil yanvar-mart holatiga ko'ra, birlikda

Yangi tashkil etilganlarning o'tgan yilga nisbati (foizda)

Yillar kesimida soni




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida


jamiga nisbatan ulushi



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Sanoat



Qurilish




Savdo



Tashish va saqlash




Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

Mamlakat iqtisodiyotining "sog'lomligi"ni baholashning muhim omili – kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko'rsatishi bo'lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o'zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko'rsatkichidir.

Shunda, 2023- yil yanvar-mart oylarida axborot-kommunikatsiya sohasida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2022-yilning mos davriga nisbatan yashash va ovqatlanish 37 tadan 76 taga (o'sish 39 taga), tashish va saqlash – 49 tadan 51 taga (o'sish 2 taga) ko'paydi.


Tumanlar kesimida

o'tgan yilga nisbati (foizda)


Nukus sh.	325	137,1 %	Kegayli	69	146,8 %
Beruniy	205	209,2 %	Qonliko'l	66	347,4 %
Qo'ng'iro't	188	272,5 %	Qorao'zak	60	285,7 %
To'rtko'l	183	176,3 %	Mo'ynoq	52	157,6 %
Ellikqal'a	146	178,0 %	Nukus	44	102,3 %
Amudaryo	132	148,3 %	Taxiatosh	43	81,1 %
Chimboy	84	215,4 %	Taxtako'pir	36	180,0 %
Xo'jayli	71	202,9 %	Bo'zotov	26	216,7 %
Shomanay	70	259,3 %			

2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni




Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida


jamiga nisbatan ulushi



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat




Qurilish




Savdo




Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

Tumanlar kesimida eng ko'p kichik biznes subyektlari Nukus shahrida (26,4 foiz), To'rtko'l (10,8 foiz), Amudaryo (8,5 foiz), Beruniy (8,4 foiz) va Ellikqal'a (6,6 foiz) viloyatlarida faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu tumanlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 50 foizdan ortig'i faoliyat ko'rsatmoqda.

Ma'lumki ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.

Tumanlar kesimida


Nukus sh.	5 112	Kegayli	639
To'rtko'l	2 092	Taxiatosh	607
Amudaryo	1 646	Qorao'zak	536
Beruniy	1 633	Qonliko'l	495
Ellikqal'a	1 278	Mo'ynoq	495
Qo'ng'iro't	1 219	Shomanay	475
Xo'jayli	1 035	Taxtakopir	325
Chimboy	781	Bo'zotov	310
Nukus	698		

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma‘lumotlar

2023- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, birlikda

Tumanlar kesimida


Amudaryo	351
To‘rtko‘l	324
Nukus	302
Beruniy	281
Kegeyli	186
Ellikqal‘a	166
Qo‘ng‘irot	161
Qonliko‘l	158
Xo‘jayli	148
Chimboy	147
Bo‘zotov	143
Nukus sh.	141
Mo‘ynoq	123
Qorao‘zak	107
Shomanay	100
Taxiatosh	93
Taxtako‘pir	87



O‘zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning chuqur o‘ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to‘liq ta‘minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo‘nalishlardan biriga aylandi.


Baliq ovlash va akvakultura



2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda


Tumanlar kesimida

Nukus sh.	592
To'rtko'l	347
Amudaryo	320
Ellikqal'a	308
Beruniy	297
Qo'ng'iro't	241
Qo'ng'iro't	241
Xo'jayli	183
Chimboy	145
Qorao'zak	143
Mo'ynoq	125
Taxiatosh	123
Shomanay	106
Kegeyli	98
Nukus	90
Taxtako'pir	84
Bo'zotov	57



Sanoat tarmog'i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi. So'nggi uch yil ichida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalarini sonining o'sish sur'ati 112,5 foizni tashkil etdi.


Sanoat korxonalarini soni jami korxonalar va tashkilotlarning 17,0 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 92,5 foizini ishlab chiqarish sanoati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish 104,8 foiz), 4,6 foizini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (o'sish 84,9 foiz), 2,1 foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish (o'sish 115,0 foiz) va 0,8 foizini elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (o'sish 77,1 foiz) tashkil etgan.



2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda

Tumanlar kesimida

Nukus sh	819
To'rtk'ol	137
Xo'jayli	99
Ellikqal'a	95
Qo'ng'iro't	94
Beruniy	86
Amudaryo	76
Nukus	75
Taxiatosh	59
Kegeyli	57
Qorao'zak	48
Chimboy	45
Mo'ynoq	38
Shomanay	28
Qonliko'l	27
Taxtako'pir	21
Bo'zotov	17



O'zbekistonda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 57,2 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 71,8 foizga oshgan;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 15,5 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 93,7 foizga oshgan;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 27,3 foiz ulushni va 72,3 foiz o'sish sur'atini tashkil etdi.

282


Fuqarolik
obyektlarini qurish

497

Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

1 042


Bino va
inshootlar qurish



2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda

Tumanlar kesimida

Nukus sh	1 962
To'rtko'l	770
Beruniy	595
Amudaryo	548
Ellikqal'a	418
Qo'ng'iro't	386
Xo'jayli	373
Chimboy	292
Taxiatosh	223
Shomanay	172
Kegeyli	165
Qonliko'l	146
Nukus	139
Qorao'zak	132
Mo'ynoq	119
Taxtakopir	79
Bo'zotov	47



Tahlillar shuni ko'rsatdiki, respublikada faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxonalar savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 100,1 foizi yoki 6,5 mingtasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 66,7 foiz ulushni tashkil etgan bo'lib, 2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda o'sish sur'ati 97,1 foizni tashkil etdi;

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 23,7 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 107,9 foizni tashkil etdi;

- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 9,6 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 116,3 foizni tashkil etdi.

635

Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash

1 553

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo


4 378

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda

Tumanlar kesimida

Nukus sh	338
Amudaryo	138
To'rtko'l	119
Qo'ng'iro't	103
Beruniy	99
Ellikqal'a	88
Xo'jayli	55
Chimboy	43
Kegeyli	37
Qonliko'l	30
Qorao'zak	26
Taxiatosh	26
Mo'ynoq	24
Taxtako'pir	17
Shomanay	16
Bo'zotov	15
Nukus	11



2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar o'sish sur'ati 2019- yilning mos davriga nisbatan 122,9 foizni tashkil etdi. Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:

- mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning 7,3 foiz ulushini tashkil etdi;

- restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat va ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 92,7 foiz ulushini tashkil etdi.

87

Yashash bo'yicha xizmatlar



1 098


Oziq- ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar



2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda

Tumanlar kesimida

Nukus sh.	178
Qo'ng'iro't	30
Beruniy	28
Chimboy	22
Amudaryo	21
Ellikqal'a	17
To'rtko'l	14
Kegeyli	12
Taxiatosh	10
Xo'jayli	10
Mo'ynoq	9
Nukus	8
Qorao'zak	6
Shomanay	6
Qonliko'l	4
Bo'zotov	3
Taxtakopir	3




Tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda

Tumanlar kesimida


Nukus sh.	292
To'rtko'l	126
Qo'ng'iro't	61
Ellikqal'a	54
Beruniy	51
Amudaryo	49
Xo'jayli	37
Chimboy	36
Kegeyli	25
Mo'ynoq	25
Nukus	20
Taxiatosh	18
Qorao'zak	15
Bo'zotov	10
Shomanay	10
Taxtakopir	6
Qonliko'l	5



2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda

Tumanlar kesimida

Nukus sh	175
Amudaryo	37
Beruniy	34
To'rtko'l	33
Xo'jayli	31
Qo'ng'iro't	30
Ellikqal'a	28
Chimboy	17
Taxiatosh	15
Kegeyli	13
Nukus	11
Taxtakopir	7
Qora'zak	5
Qonliko'l	5
Shomanay	5
Mo'ynoq	3
Bo'zotov	1



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxonalar va tashkilotlarning – 450 ta yoki 1,9 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yo'nalishlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki:

94,4 foiz korxonalar sog'liqni saqlash yo'nalishiga to'g'ri kelib, o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 93,6 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishidagi korxonalar soni 3,8 foizni tashkil etib, o'sish sur'ati 60,7 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 1,8 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 80,0 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

8



Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

17



Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat


425

Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha umumiy ma’lumot

2023- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, birlikda

Tadbirkorlik subyektlari soni

Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi




Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning birlashtirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma’lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta’minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.

2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda


Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida


jamiga nisbatan ulushi



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish




Savdo



Tashish va saqlash




Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

Mas'uliyati cheklangan jamiyati – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalarini qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan 19,4 mingta tijorat korxonasi va tashkilotlarining 14,6 mingtasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar ulushiga to'g'ri keladi. Mazkur jamiyatlar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.


Tumanlar kesimida

Nukus sh.	4 251	Kegeyli	540
To'rtko'l	1 455	Qorao'zak	442
Beruniy	1 220	Mo'ynoq	410
Amudaryo	1 181	Taxiatosh	392
Qo'ng'iro't	869	Shomanay	300
Xo'jayli	817	Bo'zotov	274
Ellikqal'a	734	Qonliko'l	272
Chimboy	654	Taxtako'pir	189
Nukus	606		

2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda


Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida


jamiga nisbatan ulushi



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Sanoat




Qurilish




Savdo




Tashish va saqlash




Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar


Xususiy korxonalar – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e'tirof etiladi. Xususiy korxonalar tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni o'tgan yilning mos davriga nisbatan 79,2 foizni tashkil etdi.

Tumanlar kesimida


Nukus sh.	530	Chimboy	87
Ellikqal'a	329	Qonliqo'l	81
To'rtko'l	214	Taxtakopir	64
Beruniy	204	Kegeyli	60
Qo'ng'iro't	201	Qorao'zak	47
Shomanay	150	Mo'ynoq	45
Amudaryo	115	Nukus	22
Taxiatosh	114	Bo'zotov	9
Xo'jayli	97		

2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

jamiga nisbatan ulushi




Oilaviy korxonalar – uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxonalar ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxonalar ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir.

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra 2022- yilning mos davriga nisbatan 3 taga ko'payganligini ko'rishimiz mumkin.

Tumanlar kesimida


To'rtko'l	393	Taxtakopir	63
Amudaryo	320	Nukus	51
Nukus sh.	285	Qorao'zak	25
Ellikqal'a	185	Mo'ynoq	24
Beruniy	164	Kegeyli	21
Qo'ng'irot	116	Shomanay	20
Qonliko'l	103	Chimboy	19
Xo'jayli	99	Bo'zotov	9
Taxiatosh	79		

2023-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

jamiga nisbatan ulushi



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar – korxonaning ustav jamg'armasida norezidentlar, chet el yuridik shaxslari (chet el firmalarining filial va bo'linmalari), chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar mulki ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi.

Keyingi besh yilda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 128 dan 153 taga yoki 119,5 foizga oshgan.

Tumanlar kesimida

Nukus sh.	41	Bo'zotov	6
Mo'ynoq	31	Kegeyli	6
Qo'ng'iroq	10	Qonliqo'l	6
Nukus	8	Xo'jayli	4
Taxiatosh	8	Taxtakopir	2
Qorao'zak	7	Chimboy	2
To'rtkol	7	Shomanay	2
Amudaryo	6	Ellikqal'a	1
Beruniy	6		

2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda

xorijiy korxonalar

qo'shma korxonalar



O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shniçilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag'batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 84 tasi qo'shma korxonalar, 69 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.



Xitoy Xalq Respublikasi



Rossiya Federatsiyasi



Qozog'iston Respublikasi



Turkiya Respublikasi



Janubiy Koreya



Boshqa davlatlar

2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda

xorijiy korxonalar

qo'shma korxonalar

18	Nukus sh.	23
13	Mo'ynoq	18
3	Qo'ng'iroq	7
6	Nukus	2
6	Qorao'zak	2
2	Qorao'zak	5
3	To'rtkol	4
3	Amudaryo	3
4	Beruniy	2
-	Bo'zotov	6
1	Kegeyli	5
3	Qonliko'l	3
2	Xo'jayli	2
1	Taxtako'pir	1
1	Chimboy	1
2	Shomanay	-
1	Ellikqal'a	-

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma turidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Yuridik shaxslarning faollik darajasi – ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Statistika agentligining www.qrstat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, soʻralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qoʻyilgan.



Statistik registrlarni yuritish boʻlimi
Tel.: (61) 222-78-37